

“EKOLOGIYA BURCHAGI» SHAHRIMIZ HAVOSINI TOZALASHGA XIZMAT QILADI.”

Nargiza Turdiyeva Sayfullayevna

Toshkent Tòqimachilik va Yengil Sanoat Instituti akademik litseyi Biologiya fani o'qituvchisi

To'liqinova Sojida Davron qizi

Toshkent Tòqimachilik va Yengil Sanoat Instituti akademik litseyi 7t-25 guruhi o'quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola biologiyani o'qitishda, o'quvchilarga ekologiyaga oid nazariy bilimlarni bilish, ekologik madaniyatni oshirish, tadbirlar asosida mavzuga oid ma'lumotlarni amalda qo'llay olishning ahamiyati haqida.

Kalit so'zlar: Ekologiya burchagi, tabiat va inson, ekologik madaniyat, ekologik muammo.

KIRISH

Tabiat o'ziga xos murakkab tizim bo'lib, inson va jamiyat uning hosilasidir. U tabiat evaziga mavjud va rivojlanadi. Inson o'z ehtiyojlarini tabiat hisobiga qondiradi. U tabiatdan havo, suv, ozuqa, xomashyolarni oladi va o'zining hayot faoliyati davomida tabiatga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Yer yuzida aholi sonining keskin o'sib borishi, fan va texnikaning shiddatli taraqqiyoti, mamlakatlar hududida tabiiy resurslarning bir tekis tarqalmaganligi mavjud tabiiy resurslardan imkon qadar ko'proq foydalanish va shu yo'l bilan jamiyat taraqqiyotini tezlatishni taqozo qiladi.

Natijada tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro munosabat qonunlari buziladi. Bu qonunlarning buzilishi esa ertami-kechmi ekologik inqirozga olib keladi. Hozirgi kunga kelib, butun dunyodagi ekologik holat ko'pchilikni birdek bezovta qilmoqda. Fan va texnika taraqqiyoti har bir sohaga jadal kirib borayotgan davrda o'quvchilarda ekologik madaniyatni oshirish ko'lamiga bo'lgan e'tibor ham tobora yuksalmoqda.

Ekologik madaniyatini oshirishda o'quvchilarning ko'nikma va malakasini rivojlantirishning shakl va usullaridan biri tadbirlar asosida ekologik muammolarga echim topish uslubini qollay olishdir.

Asosiy qism: Atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash, tabiiy boyliklardan tejab-tergab foydalanish ko'p jihatdan insonlar qaysi jamiyatda yashashlaridan qat'i nazar insonlarning ekologik madaniyatiga bog'liq. Respublikamizdagi ekologik muammolarni hal qilish uchun aholining ekologik madaniyatini oshirish eng ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishni fan sifatida o'qitish muhim ahamiyatga ega. Qo'yida Toshkent to'qimachilik va engil sanoat instituti akademik litseyida "Ekologiya burchagi" tashkil etilgani, o'quvchilarda ekologik madaniyatni oshirish maqsadida o'tkazilgan tadbir senariyini havola etamiz.

Boshlovchi: Assalomu alaykum xurmatli o'qituvchilar va aziz o'quvchilar.

Yer sayyorasida inson va tabiat uyg'un yashaydi. Bugungi kunda tabiat insonning yordami va g'amxo'rligiga muhtoj ekankligini barchamiz yaxshi bilamiz. Ekologik muammolar tabiat qonuniyatlariga ko'r-korona aralashish oqibatida kelib chiqadi. Uzoq

yillar davomida ishlab chiqarish munosabatlarining noto'g'ri tashkil etilgani tufayli ko'plab ekologik muammolar vujudga keldi. Bugun "Ekologiya"ga bag'ishlab o'tkazilgan tadbir munosabati bilan ekologiyani yaxshilashga shu orqali shaxriniz havosini tozalanishiga o'z hissamizni ozgina bo'lsa ham qo'shishga harakat qildik va bugun 7 ta guruh 3 ta topshiriq bo'yicha bellashadilar.

1. Ekologiyani rasm asosida tasvirlash.
2. Ekoproyekt-chiqindiga yangi hayot berish.
3. Ekoviktorina.

Birinchi vazifa guruhlarimiz ekologiya deganda nimani tushunishlarini rasmda ifodalab, o'z tasvirlarni izohlab beradilar..Demak saxnaga 1i-25, 2i-25, 3i-25,4r-25, 5r-25, 6p-25 va 7r-25 guruh o'quvchilarini taklif etamiz

Boshlovchi:Rahmat, o'quvchilarimiz juda chiroyli suratlar va ekologiyani tasvirlab berdilar. Ekologik muammolar tabiat qonuniyatlariga ko'r-korona aralashish oqibatida kelib chiqadi.Masalan,yirik zavod,fabrikadan turli zararli gazlarning chiqishi natijasida atmosferadagi ozon qatlami yemirilmoqda.Buning natijasida quyoshdan keladigan turli zararli nurlar yemirilgan ozon qatlamining tuynigi orqali tozalanmay, to'g'rida to'g'ri yerga tushmoqda.Navbatdagi vazifa o'quvchilarimiz hafta davomida ekologiyani yaxshilash uchun nimalar qilganliklarini chiqindidan nimalar yarata olganliklarini asoslab beradilar bittadan ekologik muammo yozilgan topshiriqni tanlaydilar va muammoning yechimini topadilar.Topshiriqni olishdan oldin yordam uchun guruhingizdan yana 1 o'quvchi chaqirishingiz mumkin.Marhamat.

Boshlovchi: Природные "санитары" очищают различные экосистемы. Каждый из этих "санитаров" играет важную роль в поддержании экологического баланса. Наши третье условие – эко-викторина. Учащиеся каждой группы выбирают по 1 вопросу и отвечают на него в течение 1 минуты.

Boshlovchi: O'quvchilarimiz chiqindidan suvni filtrlaydigan asbob, qalamdon, vaza, gullar, yoritgich, hayvonlar,libos tikib hamda ekologiyani tasvirlovchi maket va unda atrof muhitni ifloslanishini isiriqdan tutun chiqarib tasvirlab barchani lol qoldirdilar. Hamma o'quvchilar chiqindidan shu qadar kerakli buyumlar yaratish mumkinligi va ekologiyani saqlash o'z qo'limizda ekanligini angladilar.

Tabiiy "sanitar "organizmlar turli ekosistemalarni tozalab,yer yuzida ekologik muvozonatni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Uchinchi shartimiz Eko-viktorina. Har bir guruh o'quvchisi bittadan savol tortib,1 minut vaqt davomida javob beradilar .

Boshlovchi:Bilasizki, ona yurtimiz-dunyoda tengsiz go'zal makonlardan biri. Go'zal to'glari, daryo va ko'llari, musaffo osmoni, yam-yashil dalalar, bir so'z bilan aytganda,butun tabiati har qanday insonni maftun etadi.Uni asrab-avaylash,kelajak avlodga bus-butun yetkazish siz va bizning qo'limizda.Bugungi tadbirimizda ekologiya haqidagi kerakli va qiziqarli malumotlarga ega bo'lib, vaqtingiz mazmunli o'tdi degan umiddamiz. Endi esa ballarni e'lon qilish va yakuniy so'zni akademik lisey direktori Texnika fanlari nomzodi Umida Yuldasheva To'xtamurodovnaga beramiz marxamat.

Chiqindiga qayta hayot berish shartida yasalgan jihozlardan namunalar:



Ekoviktorinada berilgan savollardan namunalar.

Tabiiy “sanitar” organizmlar nomini toping. Найдите название организмов-природных “санитаров”.

1- O'txo'r hayvonlar populyatsiyasini zaif, kasal va qarilarni eyish orqali tartibga soladi. Javob: bo'ri. - Регулирует численность популяции травоядных животных, поедая слабых, больных и старых особей.

2- U bir hujayrali organizm-- suvni tozalaydi, zaharli moddalarni o'zlashtiradi va kislorod ishlab chiqaradi. Javob: xlorella. Являющийся одноклеточным организмом – очищает воду, поглощая токсичные вещества и выделяя кислород.

3- Tuproqning tuzilishi va unumdorligini yaxshilab, organik qoldiqlarni qayta ishlaydi. Javob: yomg'ir chuvalchangi. Перерабатывают органические остатки, улучшая структуру и плодородие почвы.

4- Suv havzalari tubidagi o'lik organizmlar va o'simlik qoldiqlari bilan oziqlanadi. Javob: qisqichbaqa. - Питаются мертвыми организмами и растительными остатками на дне водоемов.

5. Archa bir gektari 1 soatda 8 kg karbonat angidrid gazini yutib, kislorod ajratib havoni filtrlaydi va havodagi bakteriyalarni o'ldiruvchi qanday modda ishlab chiqaradi?

5- 5. Ель на одном гектаре за 1 час поглощает 8 кг углекислого газа, выделяет кислород, фильтрует воздух и производит какое вещество, уничтожающее бактерии в воздухе?

6- 6. “лечат” деревья, доставая вредных насекомых из-под коры
6daraxt po'stlog'i ostidan zararli hasharotlarni olib, daraxtlarni “davolaydi”

7- 7.поедают огромное количество вредных насекомых, контролирую их численность

8- 7.O'zi xam xashorot, zararli hasharotlarni juda ko'p miqdorda yeydi va ularning sonini nazorat qiladi.

1. Bo'ri-волк
2. Xlorella(suv o'ti)- хлорелла
3. Yomg'ir chuvalchangi- Дождевые черви
4. Qisqichbaqa- краб
5. Fitonsid-фитонцид
6. Qizilishtonlar-. Дятлы
7. O'rgimchak- Пауки:

Akademik litseylarda biologiya fanini o'qitishda ekologiya bo'yicha mavzular berilgan.Shu o'rinda ekologik mavzular asosida o'quvchilarda ekologik madaniyatni qanday shakllantirish kerak degan savol tug'iladi.

Ekologiya bo'limiga oid mavzularni o'tishda nazariy bilimlar bilan birga tadbirlar, bellashuvlar tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero tabiatni asrab, kelgusi avlodga topshirish har birimizning vazifamizdir.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1."Ekologiyaga oid tadbirlar o'quvchilarda ekologik madaniyatni oshiradi". Maqola.Turdiyeva.N

2. P.S.SULTONOV EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH ASOSLARI.Toshkent 2007y 3- bet

3.Internet materiallaridan foydalanildi.